


Korxonalar va tashkilotlarning demografiyasi

1.Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar holati.

Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sharoitida olib borilgan islohotlar natijasida, 2017 yil 1 oktyabr holatiga, viloyat bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 22208 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich yil boshiga nisbatan 5,7 foizga oshganligini ko'rsatdi. Ushbu korxonalarning asosiy qismi, 6998 tasi Samarqand shahriga, 1964 tasi Urgut, 1757 tasi Pastdarg'om, 1485 tasi Samarqand, 1184 tasi Payariq, 1115 tasi Ishtixon, 1034 tasi Kattaqo'rg'on, 872 tasi Narpay, 870 tasi Bulung'ur, 852 tasi Tayloq, 849 tasi Oqdaryo, 732 tasi Jomboy, 648 tasi Nurobod, 540 tasi Qo'shrabot, 581 tasi Paxtachi tumanlariga va 727 tasi Kattaqo'rg'on shahriga to'g'ri keladi.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni dinamikasi



2. Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar faolligi.

Shu bilan birga, 2017 yil 1 oktyabr holatiga kelib, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 21 mingdan ortdi.

Mazkur ko'rsatkich viloyat bo'yicha 2006 yilga nisbatan 1,6 marta, Urgut tumanida 2,6 marta, Ishtixon, Qo'shrabot tumanlarida 2,5 marta, Payariq, Oqdaryo tumanlarida 2,2 marta, Nurobod, Samarqand, Narpay tumanlarida 2 marta, Pastdarg'om tumanida 2,1 marta, Bulung'ur tumanida 1,9 marta, Tayloq tumanida 1,8 marta, Kattaqo'rg'on tumanida 1,7 marta, Jomboy, Paxtachi tumanlarida 1,6 marta, Kattaqo'rg'on shahrida 1,4 marta va Samarqand shahrida esa 1,1 martaga o'sgan.



Shuningdek, hududlar kesimida esa, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi, ya'ni 31,8 foizi Samarqand shahriga, 3,3 foizi Kattaqo'rg'on shahriga, 9,2 foizi Urgut, 7,6 foizi Pastdarg'om, 6,5 foizi Samarqand, 5,2 foizi Payariq, 5,1 foizi Ishtixon, 4,6 foizi Kattaqo'rg'on, 4,0 foizi Narpay, 4,0 foizi Tayloq, 3,8 foizi Bulung'ur, 3,8 foizi Oqdaryo, 3,2 foizi Jomboy, 2,8 foizi Nurobod, 2,6 foizi Paxtachi, 2,5 foizi Qo'shrabot tumanlariga to'g'ri keladi.


**Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar demografiyasi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

| Shahar va tumanlar nomi | 01.01.2006 y. | 01.10.2017 y. | o'sishi, marta | hududlar ulushi, % | |
|--------------------------------|----------------------|----------------------|-----------------------|---------------------------|----------------------|
| | 01.01.2006 y. | 01.10.2017 y. | | 01.01.2006 y. | 01.10.2017 y. |
| Samarqand viloyati | 12970 | 21023 | 1,6 | 100 | 100 |
| Samarqand sh | 5840 | 6680 | 1,1 | 45,0 | 31,8 |
| Kattaqo'rg'on sh | 485 | 702 | 1,4 | 3,7 | 3,3 |
| Tumanlar | | | | | |
| Oqdaryo | 366 | 806 | 2,2 | 2,8 | 3,8 |
| Bulung'ur | 434 | 804 | 1,9 | 3,3 | 3,8 |
| Jomboy | 427 | 668 | 1,6 | 3,3 | 3,2 |
| Ishtixon | 434 | 1080 | 2,5 | 3,3 | 5,1 |
| Kattaqo'rg'on | 555 | 965 | 1,7 | 4,3 | 4,6 |
| Qo'shrobot | 204 | 518 | 2,5 | 1,6 | 2,5 |
| Narpay | 417 | 838 | 2,0 | 3,2 | 4,0 |
| Payariq | 504 | 1099 | 2,2 | 3,9 | 5,2 |
| Pastdarg'om | 778 | 1608 | 2,1 | 6,0 | 7,6 |
| Paxtachi | 345 | 547 | 1,6 | 2,7 | 2,6 |
| Samarqand | 680 | 1356 | 2,0 | 5,2 | 6,5 |
| Nurobod | 293 | 584 | 2,0 | 2,3 | 2,8 |
| Urgut | 747 | 1930 | 2,6 | 5,8 | 9,2 |
| Tayloq | 461 | 838 | 1,8 | 3,6 | 4,0 |

Iqtisodiyot tarmoqlari kesimida 2017 yil 1 oktyabr holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan 21023 mingta yuridik shaxsning (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 3690 tasi sanoat, 1657 tasi qurilish, 1395 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4759 tasi savdo, 682 tasi tashish va saqlash, 1208 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 384 tasi axborot va aloqa, 575 tasi ko'chmas mulk bilan operatsiyalar, 607 tasi professional, ilmiy va texnik faoliyat, 2185 tasi ta'lim, 456 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 3425 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslarning
iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha soni
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)**

01.10.2017 y




2017 yil 1 oktyabr holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan yirik tijorat korxonalari soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 132 tani tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida mazkur korxonalar va tashkilotlarning 9 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 33 tasi sanoat, 15 tasi qurilish, 34 tasi savdo, 23 tasi tashish va saqlash, 4 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 1 tasi sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 13 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan yirik tijorat korxonalarining iqtisodiyot tarmoqlaridagi soni

01.10.2017 y holatiga



3. Xorijiy investitsiyalar va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalarini rivojlantirish

2017 yil 1 oktyabr holatiga Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registriga asosan viloyat bo'yicha ro'yxatdan o'tgan xorijiy investitsiya va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar soni 281 tani, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari 273 tani tashkil etdi.


Xorijiy investitsiyalar va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar

01.10.2017 yil holatiga

| № | Shahar va tumanlar | Ro'yxat dan o'tgan | shundan | | | 2017 y yanvar-sentyabrda tashkil e'tilgan | 2017 y yanvar-sentyabrda tugatilgan |
|----|---|--------------------|--------------------------|--------------------------|---------------------------------------|---|-------------------------------------|
| | | | faoliyat ko'rsata yotgan | faoliyat ko'rsatmayotgan | faoliyat ko'rsatmayotganlar ulishi, % | | |
| | Samarqand viloyati | 281 | 273 | 8 | 2,8 | 37 | 16 |
| 1 | Samarqand sh. | 139 | 135 | 4 | 2,9 | 17 | 12 |
| 2 | Kattaqo'rg'on sh. | 7 | 7 | | | 2 | |
| | tumanlar: | | | | | | |
| 3 | Oqdaryo | 7 | 7 | | | 1 | |
| 4 | Bulung'ur | 6 | 6 | | | 1 | 1 |
| 5 | Jomboy | 25 | 23 | 2 | 8,0 | 2 | |
| 6 | Ishtixon | 4 | 4 | | | 1 | |
| 7 | Kattaqo'rg'on | 2 | 2 | | | | |
| 8 | Qo'shrabot | 2 | 2 | | | 1 | |
| 9 | Narpay | 3 | 3 | | | | |
| 10 | Payariq | 1 | 1 | | | | |
| 11 | Pastdarg'om | 10 | 10 | | | 4 | 1 |
| 12 | Paxtachi | 3 | 3 | | | | |
| 13 | Samarqand | 19 | 17 | 2 | 10,5 | | 2 |
| 14 | Nurobod | 5 | 5 | | | 2 | |
| 15 | Urgut | 37 | 37 | | | 3 | |
| 16 | Tayloq | 11 | 11 | | | 3 | |
| | Iqtisodiy tarmoqlar bo'yicha | | | | | | |
| 1 | Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 13 | 12 | 1 | 7,7 | 4 | 1 |
| 2 | Sanoat | 190 | 189 | 1 | 0,5 | 27 | 8 |
| 3 | Qurilish | 3 | 3 | | | 2 | 2 |
| 4 | Savdo | 41 | 35 | 6 | 14,6 | 2 | 2 |
| 5 | Tashish va saqlash | 5 | 5 | | | | 1 |
| 6 | Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 6 | 6 | | | | |
| 7 | Boshqa turlar | 23 | 23 | | | 2 | 2 |

Ro'yxatga olingan xorijiy investitsiya va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi 190 tasi sanoatda, 41 tasi savdo, 13 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 5 tasi tashish va saqlashda, 3 tasi qurilishda va 23 boshqa turdag'i sohalariga to'g'ri keladi.


2017 yil 1 oktyabr holatiga Xorijiy investitsiyalar va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha soni



2017 yil yanvar-sentyabrda viloyatda 37 ta xorijiy investitsiya va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar tashkil etilib va ro'yxatdan o'tgan.

Asosiy qismi Samarqand shahrida 17 ta, Pastdarg'om tumanida 4 ta, Urgut, Tayloq tumanlarida 3ta, Kattaqo`rg'on shahri, Nurobod va Jomboy tumanlarida 2 ta, Oqdaryo, Bulung'ur, Ishtixon va Qo'shrabot tumanlarida 1 tani tashkil etdi.


2017 yil 1 oktyabr holatiga Xorijiy investitsiyalar va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar tuman (shaharlar) kesimida soni



2017 yil 1 oktyabr holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan xorij kapitali ishtirokidagi korxonalarning umumiy soni 273 tani tashkil etdi. Ushbu sub'ektlardan 53 tasi Xitoy Xalq Respublikasi, 41 tasi Turkiya Respublikasi, 39 tasi Rossiya Federatsiyasi, 22 tasi Buyuk Britaniya, 20 tasi Koreya Respublikasi, 13 tasi BAA, 11 tasi AQSh, 9 tasi Germaniya Federativ Respublikasi, 9 tasi Eron Islom Respublikasi, 7 tasi Latviya Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida tashkil etilgan.

4. Oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi

Mamlakatimizda “Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida”gi Qonunning qabul qilinishi, tadbirkorlikning rivojlanishida yangi tashkiliy-huquqiy shaklni kirib kelishiga zamin yaratdi. Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2013 yilning 1 yanvar holatiga 43 tani tashkil etib, 2014 yilda 168 ta, 2015 yilda 355 ta, 2016 yilda 584 ta, 2017 yilda 946 ta, 2017 yilning 1 oktyabr holatiga esa 1558 taga yetdi. Bu esa, faqatgina so'nggi 9 oyda ularning 64,7 foizga o'sganligini ko'rsatdi.



Oilaviy korxonalarining asosiy qismi, ya'ni 526 tasi Samarqand shahriga, 169 tasi Ishtixon, 150 tasi Pastdarg'om va Samarqand, 115 tasi Urgut, 102 tasi Payariq, 84 tasi Tayloq, 50 tasi Oqdaryo, 47 tasi Jomboy, 46 tasi Narpay, 37 tasi Bulung'ur, 25 tasi Kattaqo'rg'on, 22 tasi Nurobod, 15 tasi Qo'shrabot, 10 tasi Kattaqo'rg'on shahriga va Paxtachi tumanlariga to'g'ri keladi.

5. Kichik tadbirdorlik sub'ektlarining rivojlanishi

2017 yil 1 oktyabr holatiga Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registriga asosan viloyat bo'yicha ro'yxatdan o'tgan kichik tadbirdorlik (biznes) sub'ektlari (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) soni 16980 tani, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari 15958 tani yoki 94,0 foizni tashkil etdi. Shundan faoliyat ko'rsatmayotganlari 1022 ta. 2017 yil yanvar-sentyabrdagi 2684 ta tashkil etilgan va 1182 ta tugatilgan.


**Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining hududlar bo'yicha soni *)
(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)**

01.10.2017 yil holatiga

| Shahar va tumanlar nomi | Ro'yxatdan o'tgan | Faoliyat ko'rsatayotgan | Faoliyat ko'rsatmayotgan | Faoliyat ko'rsatma yotganlar ulushi, % | 2017 y yanvar-sentyabrdacha tashkil etilgan | 2017 y yanvar-sentyabrdacha tugatilgan |
|---|--------------------------|--------------------------------|---------------------------------|---|--|---|
| Samarqand viloyati | 16980 | 15958 | 1022 | 6,0 | 2684 | 1182 |
| Samarqand sh | 5768 | 5515 | 253 | 4,4 | 862 | 379 |
| Kattaqo'rg'on sh | 568 | 545 | 23 | 4,0 | 99 | 38 |
| Oqdaryo | 642 | 604 | 38 | 5,9 | 100 | 28 |
| Bulung'ur | 631 | 571 | 60 | 9,5 | 122 | 92 |
| Jomboy | 524 | 470 | 54 | 10,3 | 81 | 75 |
| Ishtixon | 832 | 811 | 21 | 2,5 | 155 | 60 |
| Kattaqo'rg'on | 712 | 652 | 60 | 8,4 | 110 | 92 |
| Qo'shrobot | 331 | 311 | 20 | 6,0 | 25 | 25 |
| Narpay | 598 | 569 | 29 | 4,8 | 76 | 17 |
| Payariq | 886 | 807 | 79 | 8,9 | 159 | 94 |
| Pastdarg'om | 1321 | 1178 | 143 | 10,8 | 199 | 94 |
| Paxtachi | 346 | 324 | 22 | 6,4 | 49 | 15 |
| Samarqand | 1203 | 1086 | 117 | 9,7 | 216 | 89 |
| Nurobod | 456 | 395 | 61 | 13,4 | 62 | 27 |
| Urgut | 1545 | 1516 | 29 | 1,9 | 270 | 20 |
| Tayloq | 617 | 604 | 13 | 2,1 | 99 | 37 |
| Iqtisodiy tarmoqlar bo'yicha | | | | | | |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 1510 | 1363 | 147 | 9,7 | 369 | 104 |
| Sanoat | 3832 | 3656 | 176 | 4,6 | 752 | 223 |
| Qurilish | 1806 | 1641 | 165 | 9,1 | 261 | 164 |
| Savdo | 5058 | 4725 | 333 | 6,6 | 552 | 383 |
| Tashish va saqlash | 688 | 657 | 31 | 4,5 | 87 | 38 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 1241 | 1192 | 49 | 3,9 | 321 | 95 |
| Boshqa sohalarda | 2845 | 2724 | 121 | 4,2 | 342 | 175 |

*) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.08.2016 yil 275-sonli qaroriga asosan

8-rasm.



2017 yil 1 oktyabr holatiga kelib, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 15958 tasi tashkil etib, bu ko'rsatkich yil boshiga nisbatan 7,9 foizga oshganligini ko'rsatdi. Ushbu kichik tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy qismi, 5515 tasi Samarqand shahriga, 1516 tasi Urgut, 1178 tasi Pastdarg'om va 1086 tasi Samarqand tumanlariga va to'g'ri keladi.

2017 yil 1 oktyabr holatiga viloyatda Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida mazkur kichik tadbirkorlik sub'ektlarining 1363 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 3656 tasi sanoat, 1641 tasi qurilish, 4725 tasi savdo, 657 tasi tashish va saqlash, 1192 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari hamda 2724 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

9-rasm.

